

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Migratsiya agentligi markaziy apparatining boshqaruv hamda hududiy
filiallaridagi vakant lavozimlariga tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik) tizimidagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish jarayonida shaffoflikni ta'minlash, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning barchasiga teng imkoniyatlardan foydalangan holda tizimga salohiyatli kadrlarni saralab olish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom qoidalarini quyidagi lavozimlarga tatbiq etilmaydi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan yoki ular bilan kelishiladigan lavozimlar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa;

- texnik va xizmat ko'rsatuvchi toifadagi lavozimlar.

3. Ushbu Nizom tanlov o'tkaziladigan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini va tanlov o'tkazish tartibini belgilaydi.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **vakant lavozim** — Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrda mavjud egallanmagan lavozim;

- **nomzod** — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining «Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali»da (keyingi o'rinlarda — Portal) vakant lavozimni egallash bo'yicha nomzod sifatida mazkur Nizomda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

5. Tanlov meritokratiya, ochiqlik, muqobillik va tenglik tamoyillariga ko'ra ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq sxema asosida o'tkaziladi.

2-BOB. TANLOV TURLARI

6. Vakant lavozimlarni egallash Portali orqali o'tkaziladigan ichki va tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

Ichki tanlovlarda faqat davlat fuqarolik xizmatchilari, tashqi tanlovlarda esa tegishli malaka talabiga javob beradigan barcha nomzodlar ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

7. Ichki tanlovlar vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab o'n ish kuni ichida e'lon qilinadi. Bunda ichki tanlovlar faqatgina bir davlat organi doirasida yoki davlat fuqarolik xizmati tizimidagi barcha davlat organlari davlat fuqarolik xizmatchilari uchun e'lon qilinishi mumkin.

Ichki tanlovlar natijasida tanlov g'olibi aniqlanmagan yoki vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab **o'n besh ish kuni ichida ichki tanlov e'lon qilinmagan taqdirda, ushbu vakant lavozim bo'yicha tashqi tanlov e'lon qilinadi.**

Bitta vakant lavozim uchun bir martadan ortiq ichki tanlov o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

3-BOB. TANLOVNI TASHKIL QILISH TARTIBI

8. Portaldagi vakant lavozimlar to'g'risida ma'lumotlar avtomatik tarzda «hrm.argos.uz» elektron tizimidagi ma'lumotlar asosida shakllanadi.

Vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlar Portalga joylashtirilgan sana mazkur lavozimni egallash bo'yicha tanlov e'lon qilingan kun deb hisoblanadi.

9. Tanlov to'rt bosqichda tashkil etiladi:

- **birinchi bosqich** — tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon berish;
- **ikkinchi bosqich** — nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish va saralash;
- **uchinchi bosqich** — nomzodlarning bilimini test sinovidan o'tkazish;
- **to'rtinchi bosqich** — nomzodlar bilan suhbat o'tkazish.

Tanlovlarda ishtirok etish uchun hujjat topshirgan nomzodlar soni besh nafar va undan kam bo'lgan hollarda davlat organi tomonidan tanlovning uchinchi bosqichi o'tkazilmasligi hamda tanlovlarning suhbat bosqichiga o'tgan nomzodlar soni yigirma nafardan ortiq bo'lgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) bilan kelishilgan holda qo'shimcha bosqich (esse, test va boshqalar) qo'shilishi mumkin.

Baholash tizimining yagona elektron platformasi «samaradorlik.uz»da faoliyat samaradorligi «yaxshi» va «a'lo» deb baholangan davlat fuqarolik xizmatchisi ichki tanlovning test sinovini topshirishdan ozod etiladi va unga test sinovidan maksimal ball beriladi.

10. Tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon Portalda hamda davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Mazkur e'lon davriy nashrlarda ham joylashtirilishi mumkin.

Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

- o'tkazilayotgan tanlov turi;
- vakant lavozim nomi va unga qo'yiladigan malaka talablari;
- lavozim majburiyatlari;
- lavozim maoshi;
- mehnat sharoitlariga oid ma'lumotlar.

Lavozimlarning ayrim toifalari uchun qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda, e'londa bu haqda ko'rsatiladi.

11. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati tanlov e'lon qilingan kundan boshlab besh kalendar kunni tashkil qiladi. Tashqi tanlovlar bo'yicha hujjatlarni qabul qilish muddati o'n kalendar kungacha uzaytirilishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar kelib tushmagan taqdirda, ushbu lavozim bo'yicha qayta tanlov avtomatik tarzda e'lon qilinib, hujjatlarni qabul qilish muddati o'n kalendar kunga uzaytiriladi.

Tanlovning barcha bosqichlari tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab yigirma ish kuni mobaynida o'tkazilishi lozim.

12. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar faqat Portal orqali elektron tarzda qabul qilinadi. Nomzodlardan hujjatlar va ularning nusxalarini qog'oz shaklida talab qilish hamda yuborish taqiqlanadi.

13. Nomzodga bir vaqtning o'zida uchtdan ortiq bo'lmagan vakant lavozim uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

Nomzod bir oy davomida beshtagacha vakant lavozimlar bo'yicha tanlovlarda ishtirok etishi mumkin.

14. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha tanlov natijasiga ta'sir qiladigan yolg'on ma'lumotlar (hujjatda yo'l qo'yilgan texnik xatolik yoki boshqa kamchiliklar bundan mustasno) taqdim etilganligining aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish yoki tanlov natijalarini bekor qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

15. Tanlovda «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonunning 28-moddasida belgilangan davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslardan boshqa barcha shaxslar ishtirok etishi mumkin, qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

16. Davlat organida tanlovlarni o'tkazish uchun besh nafardan yetti nafargacha a'zodan, tuman (shahar) darajasidagi davlat organida esa uch nafardan besh nafargacha a'zodan iborat Tanlovlarni tashkillashtirish va o'tkazish komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Tanlov komissiyasi) tuziladi.

Tanlov komissiyasining tarkibi davlat organi rahbari qarori bilan tasdiqlanadi.

Tanlov o'tkazilayotgan davlat organining rahbari (rahbar o'rinbosari) Tanlov komissiyasining raisi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga qoida tariqasida:

- davlat organining vakant lavozimiga tanlov e'lon qilingan tarkibiy bo'linmalari rahbarlari;

- davlat organining inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmasi rahbari (xodimi);
- davlat organining yuridik xizmati rahbari (xodimi) kiritiladi.

Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan bo'lsa, Tanlov komissiyasi tarkibiga mazkur vazirlik yoki idoraning mas'ul vakili ham kiritiladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga davlat organlari, ta'lim muassasalari hamda vakant lavozimning xususiyatidan kelib chiqib, boshqa mutaxassislar ham kiritilishi mumkin.

Davlat organi va Agentlik tomonidan doimiy ravishda Tanlov komissiyasi a'zolarining malakasi oshirib boriladi.

Tanlov o'tkazilishi davomida tanlov qoidalarini buzgan hamda qaror qabul qilishda xolislikni ta'minlay olmagan Tanlov komissiyasi a'zosi Agentlik taqdimnomasiga asosan Tanlov komissiyasi tarkibidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan hollarda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshirig'iga asosan ayrim davlat organlarining tanlov komissiyalari tarkibi muayyan muddatga Agentlik tomonidan shakllantiriladi va faoliyati muvofiqlashtiriladi. Bunda mazkur komissiyalar tomonidan qabul qilingan qarorlar ish beruvchilar uchun majburiy bo'lib hisoblanadi.

17. Tanlov komissiyasi o'z faoliyatini kollegiallik, oshkoralik, xolislik, adolatlilik, qonuniylik va betaraflik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

18. Tanlov o'tkazilayotgan davlat organining inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmasi Tanlov komissiyasining ishchi organi (keyingi o'rinlarda — ishchi organ) hisoblanadi.

4-BOB. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN NOMZODLARNI SARALASH TARTIBI

19. Tanlov unda ishtirok etish uchun kamida ikkita nomzoddan hujjatlar kelib tushgan taqdirda o'tkaziladi.

20. Tanlov komissiyasi hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida nomzodlarning vakant lavozim uchun belgilangan malaka talablariga mosligini o'rganib chiqadi va ushbu muddat ichida ishchi organ tomonidan o'rganish natijasi bo'yicha nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga xabar yuboriladi.

Nomzod malaka talablariga mos emas deb topilgan taqdirda, Portaldagi shaxsiy kabinetga yuboriladigan xabarda rad etish asoslari ko'rsatiladi.

Ishchi organ tanlov bosqichlari o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga tanlov bosqichlari o'tkazilishi boshlanishidan kamida yigirma to'rt soat oldin yuborilishini ta'minlaydi.

21. Tanlov o'tkazishda oshkoralik va xolislikni ta'minlash maqsadida uchinchi va to'rtinchi bosqichlar ovoqli videoyozuv orqali yozib olinadi hamda davlat organi tomonidan olti oy davomida saqlanadi.

22. Nomzodlar tanlov bosqichlari natijalari va o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni Portaldagi shaxsiy kabineti orqali kuzatib boradi.

Tanlov bosqichlari o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda Portaldagi shaxsiy kabineti orqali xabardor qilingan, lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar tanlovdan chetlashtiriladi.

5-BOB. TEST SINOVLARINI O'TKAZISH TARTIBI

23. Test sinovlari nomzodlarning bilimini baholash maqsadida Agentlikning Davlat xizmatining yagona elektron-axborot tahlil tizimidagi Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli — maxsus test tizimi orqali o'tkaziladi.

24. Test sinovlari davlat tilida o'tkaziladi.

«Davlat fuqarolik xizmatchisi» test savollari Agentlik buyurtmasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan «boshqaruv kadrlari» hamda «mutaxassislar» lavozim toifalari bo'yicha ishlab chiqilib, doimiy ravishda yangilab boriladi.

Shu bilan birga test sinovlariga «stressga bardoshlilik» va intellektuallik ko'effitsienti (IQ) darajasini aniqlashga qaratilgan alohida bo'lim kiritilishi mumkin.

Test savollarining to'liq ro'yxati Agentlik saytida e'lon qilib boriladi hamda e'lon qilinmagan savollar bo'yicha sinov o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi, «stressga bardoshlilik» va intellektuallik ko'effitsienti (IQ) darajasini aniqlash bo'yicha savollar bundan mustasno.

25. Test sinovi Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli orqali Agentlik filiallari binolarida yoki Agentlik bilan kelishilgan holda boshqa maxsus jihozlangan xonalarda yoxud masofaviy onlayn proktoring tizimi orqali o'tkaziladi.

Bunda tegishli davlat organida test sinovlarini maxsus jihozlangan xonalarda yoki masofaviy o'tkazish masalasi Agentlik tomonidan kelib tushayotgan murojaatlarning tahlili, o'tkaziladigan o'rganishlar va so'rovnomalar natijalariga ko'ra hal etiladi.

26. Nomzodlar test sinovlarida ishtirok etish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat bilan kelishlari shart.

Nomzodlarni test sinovlariga kiritish FaceID tizimi orqali amalga oshiriladi.

Test xonalariga nomzod va Agentlik mas'ul xodimidan tashqari boshqa shaxslarning kirishi taqiqlanadi.

27. Test sinovi jarayonida nomzodlarga quyidagilar taqiqlanadi:

- aloqa va telekommunikatsiya vositalari (telefon, kompyuter, planshet va boshqalar), kitob hamda shpargalkalardan foydalanish;
- boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish;
- test sinovlari tugamasdan xonadan tashqariga chiqish.

Mazkur talablarni buzgan nomzod ishchi organ tomonidan dalolatnoma tuzilgan holda tanlovdan chetlashtiriladi.

Test sinovidan chetlashtirilgan nomzod uch oy davomida keyingi tanlovlarga qo'yilmaydi.

28. Agentlik mas'ul xodimi testni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi huquqlarga ega ekanligi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

- nomzodlarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish;
- nomzodlardan test jarayonida tartib va intizomga amal qilishini talab qilish;
- test topshirish qoidalariga rioya etmagan shaxslarni test sinovidan chetlatish.

29. Nomzod tomonidan test sinovi natijasida kamida 56 ball to'planishi uning tanlovning keyingi bosqichiga o'tishi uchun asos bo'ladi.

Nomzodlarning test sinovi bo'yicha ijobiy natijalari olti oy davomida saqlanib, keyingi vakant lavozimlar bo'yicha o'tkaziladigan tanlovlarda inobatga olinadi.

30. Test sinovi natijalari avtomatik ravishda nomzodning Portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

31. Test sinovini ijobiy topshira olmagan nomzodlar ushbu Nizomda belgilangan tartibda e'lon qilingan yangi tanlovda qatnashishi mumkin.

6-BOB. SUHBAT O'TKAZISH TARTIBI

32. Suhbat nomzodning sohaviy bilimi, kasbiy mahorati, intellektual salohiyati va ma'naviy fazilatlarini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Suhbat intervyu yoki taqdimot (keys-stadi, topshiriq) kabi usullar asosida amalga oshiriladi.

33. Suhbat Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Suhbat unda Tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Agar Tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa yoki suhbat natijasidan bevosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad etishi shart. Mazkur tartibga rioya qilmaslik tanlov natijalarini bekor qilishga asos bo'ladi.

Agentlik suhbatda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun o'z vakilini yuborishi hamda nomzodlarni baholash uchun Tanlov komissiyasi tarkibiga ekspertlarni kiritish huquqiga ega. Bunda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, oliy ta'lim muassasalari yoki davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlarining vakillaridan ekspertlar jalb qilish tartibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga Agentlik tomonidan ekspertlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar tegishli davlat organi tomonidan qoplanadi.

34. Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan lavozimlar bo'yicha Tanlov komissiyasi tarkibiga mas'ul vakili kiritilgan vazirlik yoki idora suhbat o'tkaziladigan kundan kamida uch ish kuni oldin xabardor qilinishi shart.

Ishchi organ tomonidan xabardor qilingan vazirlik yoki idora mas'ul vakilining suhbat bosqichida ishtirok etmasligi, tanlov g'olibini aniqlashga to'sqinlik qilmaydi hamda tanlov g'olibini kelishish talab etilmaydi.

35. Suhbatning intervyu usulida har bir nomzodga soha bo'yicha bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi hamda vakant lavozim uchun mosligini aniqlashga qaratilgan beshta savol (topshiriq) tasodifiy tanlash orqali beriladi. Bunda suhbat bosqichida beriladigan savollarning (topshiriqlar) to'liq ro'yxati davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilingan bo'lishi lozim.

Asosiy savollardan so'ng berilgan javoblarni aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berish mumkin.

36. Suhbatning taqdimot usulida ishchi organ tomonidan suhbat o'tkazish kunidan uch kun oldin nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetiga taqdimot (topshiriq) mavzulari yuboriladi.

Suhbat davomida nomzod berilgan mavzulardan biri bo'yicha taqdimot qilib beradi. Taqdimotdan so'ng Tanlov komissiyasi a'zolari va ekspertlar har bir nomzodning taqdimot mavzusi doirasida aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berishi mumkin.

37. Nomzodlarni baholash uchun har bir Tanlov komissiyasi a'zosiga Portalda shaxsiy kabinet ochiladi.

Tanlov komissiyasi a'zolari va ekspertlar 24 soat ichida Portaldagi shaxsiy kabineti orqali onlayn tarzda nomzodlarni to'rtta yo'nalishda (bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi, vakant lavozim uchun mosligi) 100 ballik tizim asosida baholaydi.

38. Suhbat yakunlari bo'yicha Tanlov komissiyasi a'zolari va ekspertlar tomonidan nomzodga qo'yilgan ballar avtomatik ravishda umumlashtirilib, yakuniy ball hisoblanadi.

Yakuniy ball 100 ballik tizimda baholanib, suhbat natijasi yakuniy ballning 80 foizini, test sinovlari natijasi 20 foizini tashkil qiladi.

Test va suhbat natijasiga ko'ra eng yuqori yakuniy ball to'plagan nomzod tanlov g'olibi deb topilib, Tanlov komissiyasi bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

Mazkur Nizomning 15-bandi sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan mas'ul vakil tomonidan suhbat uchun qo'yilgan ball 56 balldan past bo'lgan taqdirda nomzod tanlov g'olibi deb topilishi mumkin emas.

Nomzodlarning ballari teng bo'lgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining xulosasiga asoslanib yakuniy qaror qabul qilinadi.

Tanlov g'olibi Portaldagi shaxsiy kabineti orqali mehnat shartnomasini tuzishdan bosh tortgan taqdirda, yakuniy ballga ko'ra navbatdagi o'rinni egallagan nomzod tanlov g'olibi deb topiladi.

Tanlov natijasida barcha nomzodlar 56 balldan past bo'lgan yakuniy ball to'plagan taqdirda, tanlov g'olibi topilmagan deb hisoblanib, tanlov qaytadan e'lon qilinadi.

39. Agentlikning suhbatda kuzatuvchi sifatida ishtirok etadigan vakili suhbat o'tkazish jarayoni tanlovni tashkillashtirish va o'tkazish qoidalariga mos kelishi,

shuningdek, Tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishi bo'yicha nazorat olib boradi.

40. Nomzodlar tanlov jarayonlaridan norozi bo'lgan taqdirda, qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida yuqori turuvchi organga yoki Agentlikka yoxud sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

41. Tanlov g'olibi aniqlangan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida davlat organining rahbari tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

7-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

42. Davlat organlarining tanlovlarni o'tkazish bilan bog'liq faoliyati Agentlik tomonidan monitoring va nazorat qilib boriladi.

Tanlov o'tkazish jarayonida ushbu Nizom qoidalariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda:

a) Agentlik tegishli davlat organi rahbariga aniqlangan qonunchilik buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, tanlov yakunlariga ta'sir ko'rsatgan va bartaraf etib bo'lmaydigan kamchiliklar aniqlangan taqdirda, tegishli davlat organiga Tanlov komissiyasining qarorini bekor qilish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritadi;

b) tanlovlar bo'yicha kelib tushayotgan murojaatlarning tahlili, Agentlik tomonidan o'tkaziladigan o'rganishlar va so'rovnomalar natijalariga ko'ra tanlovlarda tartib buzilishi holatlari aniqlangan va tanlovlarning xolisligi bo'yicha shubha mavjud bo'lgan taqdirda zaruratga ko'ra Agentlik har qanday tanlovlar bo'yicha davlat organlarining Tanlov komissiyasini vaqtincha chetlashtirish hamda tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda o'zining Tanlov komissiyasini belgilash huquqiga ega.

Ushbu holatda Agentlik tomonidan shakllantirilgan Tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror ish beruvchilar uchun majburiy bo'lib hisoblanadi.

43. Tanlov komissiyasining a'zolari hamda tanlov jarayoni ishtirokchilari tomonidan tanlov davomida nomzodlar to'g'risida olingan shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish taqiqlanadi.

44. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Migratsiya agentligi markaziy apparatining
boshqaruv hamda hududiy filiallarida davlat fuqarolik
xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o‘tkazish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi
markaziy apparatining boshqaruv hamda hududiy filiallarida lavozimini
egallash uchun tanlov o‘tkazish tartibi**

SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Chora-tadbirlar nomlanishi	Muddati
------------	------------	----------------------------	---------

I. Tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e‘lon berish, hujjatlarni qabul qilish va saralash bosqichi

1-bosqich	Davlat organi Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali (keyingi o‘rinlarda - Portal)	1. «hrm.argos.uz» elektron tizimidagi ma’lumotlar asosida vakant lavozimlar ro‘yxati shakllantiriladi. 2. Vakant lavozimlarga tanlov e‘lon qilinadi. 3. Tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon Portalda va davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.	Doimiy ravishda avtomatik tarzda Vakant lavozim vujudga kelgandan so‘ng 15 ish kunida
2-bosqich	Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi	1. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha nomzodlarning hujjatlarini qabul qiladi. 2. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha hujjatlar kelib tushmagan taqdirda, ushbu lavozim bo‘yicha qayta tanlov avtomatik tarzda e‘lon qilinib, hujjatlarni qabul qilish muddati o‘n kalendar kunga uzaytiriladi.	Tanlov - 5 kalendar kun (tashqi tanlovda - 10 kalendar kungacha uzaytirilishi mumkin)
3-bosqich	Nomzod	1. Portalda vakant lavozimni egallash bo‘yicha nomzod sifatida ro‘yxatdan o‘tadi. 2. Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlarini Portal orqali elektron tarzda taqdim etadi.	O‘z xohishiga ko‘ra Tanlov e‘lon qilingan kundan boshlab 5 kalendar kun ichida

4-bosqich	Davlat organi	1. Tanlovlarni o'tkazish uchun Tanlovlarni tashkillashtirish va o'tkazish komissiyasini (keyingi o'rinlarda - Tanlov komissiyasi) tuzadi. 2. Suhbatda (intervyu usulida) nomzodlarga beriladigan savollarni ishlab chiqib, rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.	Tanlov o'tkazish tartibi belgilangandan so'ng
5-bosqich	Tanlov komissiyasi, davlat organi kadrlar bo'limi	1. Nomzodlarning vakant lavozim uchun belgilangan malaka talablariga mosligini o'rganib chiqadi va o'rganish natijasi bo'yicha nomzodning Portaldagi shaxsiy kabinetiga xabar yuboradi. 2. Tanlov bosqichlari o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlar nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga yuborilishini ta'minlaydi.	Hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran 5 ish kuni ichida Tanlov o'tkazilishi boshlanishidan kamida 24 soat oldin

II. Nomzodlarni test sinovidan va suhbatdan o'tkazish, lavozimga tayinlash

6-bosqich	Nomzod	Agentlikning Davlat xizmatining yagona elektron-axborot tahlil tizimidagi «Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli» - maxsus test tizimi orqali test sinovidan o'tadi.	Hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran 10 ish kuni ichida
7-bosqich	Portal Davlat organi kadrlar bo'limi	1. Test sinovlari natijalari nomzodning Portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi 2. Suhbatning taqdimot (topshiriq) mavzularini nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.	Test sinovlaridan so'ng darhol, avtomatik ravishda Suhbat o'tkaziladigan kundan kamida 3 kun oldin
8-bosqich	Tanlov komissiyasi	1. Nomzodni suhbatdan o'tkazadi va 100 ballik tizim asosida baholaydi va uning natijalarini uning Portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboradi. 2. Test va suhbat natijasiga ko'ra eng yuqori ball to'plagan nomzod tanlov g'olibi deb topilib, bayonnoma bilan tasdiqlanadi.	Hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran 20 ish kuni ichida
9-bosqich	Davlat organining rahbari	Tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasi tuziladi.	G'olib aniqlangan kundan 5 ish kuni ichida